

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA SHOIR SHAXSIYATI TASVIRI

Umurzakova Maxliyoxon Mo'sajon qizi

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Elektron pochta: mahliyoxon2211@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17317649>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shavkat Rahmon she'rlari o'rganilgan. Unda shoirning she'rlarida shoir shaxsiyati, poetik xususiyatlari tahlil qilingan. Shoir ijodining o'ziga xos qirralari yoritilgan. Shoirning she'rlarida hayot va borliq haqidagi mushohadalari, shuningdek, jamiyatga munosabati kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Shavkat Rahmon, lirik qahramon, obraz, falsafiy mushohada, milliy ruh, poetika.

Аннотация: В данной статье изучаются стихи Шавката Рахмона. В ней анализируются поэтические особенности образа личности поэта в его стихах. Освещены самобытные грани творчества поэта. В стихах поэта прослеживаются его размышления о жизни и бытии, а также отношение к обществу.

Ключевые слова: Шавкат Раҳмон, лирический герой, образ, философское размышление, национальный дух, поэтика.

Annotation: This article examines the poetry of Shavkat Rahmon. It analyzes the poetic features of the poet's personality as reflected in his poems. The distinctive aspects of the poet's creative work are highlighted. The poet's reflections on life and existence, as well as his attitude toward society, are observed in his poems.

Keywords: Shavkat Rahmon, poetic persona, figure, philosophical reflection, national spirit, poetics.

Shoir she'r orqali o'z dunyoqarashi, tafakkuri, ruhiy iztiroblari va hayotiy pozitsiyasini obrazli tilda aks ettiradi. Bunda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, shoirning shaxsiy tajribalari umumlashtirilib, ijtimoiy-falsafiy masalalarga keng o'rin berilishi ahamiyatli. O'zbek adabiyoti tarixida shoir shaxsiyatining she'riyatdagi talqini muhim mavzulardan hisoblanadi. Buni Shavkat Rahmon she'riyati misolida aytadigan bo'lsak, zamonaviy o'zbek she'riyatida ijodkor shaxsining ichki dunyosi, uning zamon va jamiyatga munosabati yangi badiiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Olima Ra'no Mullaxo'jayeva: "Shavkat Rahmon ijodida xalqning dardi, orzu-armonlari har bir she'rda o'ziga xos tarzda aks etadi. Ularda muallifning obyektga munosabati ham turlicha. Bir she'rda armon, orzular ehtiros bilan bayon etilsa, boshqasida esa kesatq, piching kinoya bilan ifodalanadi" [1.131] deb ta'kidlaydi. Demak, shoir ijodida har bir mavzu shunchaki yozilmagan. Unda xalq dardi, orzu-armonlari, ozodlikka chorlash, vatan mavzulari asosiy o'rinni egallaydi. Ya'ni, ijtimoiy mavzudagi she'rda ham bu og'riqlar sezilib turadi. Bu haqda Ulug'bek Hamdam: "Shavkat Rahmon ijtimoiy mavzuni shaxsiy mavzu sifatida yoki buning aksi: o'z shaxsiy dardini ijtimoiy dard darajasida kuylay olish baxti nasib etgan. Ya'ni u ko'pning dardini o'z ko'ngil prizmasidan o'tkazib, uni shaxsiylashtira (personifikatsiya) bilgan. Natijada umumdard shaxs dardiga, «men» dardiga aylangan" [2.117] deb ta'riflagan. Darhaqiqat, shoir millat dardini ham o'z dardi sifatida, o'z dardini umummillat og'riqlaridek ifoda eta bilganini shoir she'rlarini o'ziga xos hech kimnikiga o'xshamagan shakl va ifodalarida ko'rish mumkin.

Shavkat Rahmon she'rlaridagi sodda so'zlar, turkona ohang insonni o'ziga seahrlaydi. Zamondosh yozuvchi Nurulloh Muhammad Raufxon o'z xotiralarida Shavkat Rahmonni ichi bilan tashi bir, ichi tashiga, tashi ichiga ters ish qilmaydigan BUTUN ODAM ekanligini aytadi. [3.12] Demak shoirning shaxsiyatidagi sokinligi, to'g'riso'zligi, jasorati, haqsizlikka isyoni va BUTUN ODAMligi uning she'rlariga ko'chganini ko'rishimiz mumkin.

Daryoga aylandim
O'ychang daryoga,
Ruhimda qalbimda osoyishtalik.
Qa'rimda berkitdim dolg'alarimni,
Ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari. [3.168]

Shoirning "Fikr" she'rida ham shoirning tashqi sokinligi o'ychan daryoga ya'ni sokin daryoga aylangani, ruhidagi qadimiy osoyishtalik undagi ichki to'lqinlarini ya'ni qa'rida berkitgan dolg'alarini, ichki isyonlarini sokin daryolarning tubiga yashirganini ifodalagan. Shoir hatto dunyo ishlarini bo'ysundirganini, dunyo ishlariga taslim bo'lmagani ruhidagi bu osoyishtalik ortida o'jar ruh, o'jar qalb isyonini qo'rishimiz mumkin.

...Shular o'ylarmikin tuprog'imizni,
Shular ko'tararmi elning yukini!?
Qani birortasi
bitta so'z aytsa,
So'qimlar davrasin nogoh to'zitib,
Shoir yuragimni yulib berardim
birgina Turkiston degan so'z uchun. [4.224]

Bu she'rda esa shoir kelajak uchun tashvish chekayotgani shu misralarda ko'rishimiz mumkin. Yurt farzandlari shu tuproq haqida o'ylarmikan!? O'zining mayda tashvishlaridan ortib el yukini ko'tarishga yararmikan degan savolni o'rta tashlaydi. Bu she'rda birgina Vatan, Turkiston degan so'zi uchun yuragini yulib berishga tayyor shoir.

She'riyatda shoir shaxsiyati tasviri muhim estetik va ma'naviy vazifani bajaradi. Chunki u ijodkorning ichki dunyosi va hissiy holatini, jamiyat, zamon va inson haqidagi qarashlarini bir butunlikda ifoda qilishi bilan ahamiyatli. XX asrning yetmishinchi-saksoninchi yillari she'riyati uchun eng dolzarb mavzulardan biri – Vatan mavzusi bo'ldi. Xususan, shoir Shavkat Rahmon ijodida ham bu mavzu bo'rtib ko'rinadi.

Shoirning ijodini ham, shaxsiyatini ham yaqindan bilgan adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov "Vatanni anglash – Shavkat she'riyatidagi bosh g'oya, sarbon tuyg'u" [5.202] deb yozadi. Shoirning har bir she'rida vatanga muhabbat, xalq dardi bilan yashash ishqiy yaqqol sezilib turishi ayon.

Shoir shaxsiyati odatda lirik qahramon obrazi orqali gavdalanadi. Bu esa she'rni ruhiy va tafakkur jihatdan dalil sifatida qabul qilishimizga zamin yaratadi. Shoirning ruhiy olami, hayotga va jamiyatga munosabati, ijtimoiy pozitsiyasi she'rning ifoda uslubida yaqqol ko'rinib turadi. Shu jihatdan olganda, she'r – shoirning, ya'ni individual bir shaxsning ichki dunyosi, tarixiy davr va ijtimoiy muhitni aks ettiruvchi badiiy hodisa sifatida qimmatlidir.

Shavkat Rahmonning "Sharq uyqudan uyg'onar go'zal" misralari bilan boshlanuvchi she'rida sharqning ilm beshigi bo'lganiga ishora bor:

Ammo uyqusidan
Uyg'onar go'zal,

Hayrat qamrab olar hamma narsani.

Sharq quyosh singari uygʻongan mahal

Dunyo sezib qolar uxlayotganin... [3.165]

Sharq quyosh singari uygʻonishi dunyoni bir qalqitib yuborishini taʼkidlamoqda. Bu bilan shoir jamiyatni hushyorlikka chorlamoqda. Bu nafaqat ijtimoiy balki vatan haqida qaygʻurish, xalqni uygʻotishga qaratilgan sheʼr.

Yoki:

Shunday oʻski,

loʻppi momiqlar

...bulutlarday toshsin chanoqdan.

Axir senga egilaverib

yo aytolmay koʻngil dardini,

qancha avlod qadimdan buyon

rostlayolmay oʻtdi qaddini. [4.192]

Bir qarashda “Gʻoʻza” sheʼri ijtimoiy mavzuda yozilgandek tuyulsa-da, aslida bu sheʼr orqali 80-yillar uygʻoq avlodining ogʻriqlari mujassam. Yaʼni,

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Shavkat Rahmon sheʼriyatida shoir shaxsiyati – koʻp qirrali, ramziy va falsafiy qatlamlarga ega badiiy tuzilma hisoblanadi. Lirik qahramon shaxsiy kechinmalar va umuminsoniy savollarni birlashtirgan holda milliy ruhni, jamiyatga munosabatni va hayot-borliq haqidagi mushohadalarni ifodalaydi. Shoirning poetik til va obrazlar tizimi uning shaxsiyatini oʻqishda asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Raʼno Mullaxoʻjayeva. Tafakkur yangilanishi. – Toshkent: Muharrir, 2019.
2. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
3. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab – Toshkent, Movarounnahr: 2012.
4. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997.
5. Haqqulov I. Badiiy soʻz shukuhi. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1987.